

## TASAVVUF ALLOMALARI OBRAZINING TARIXIY TARAQQIYOTI

**SHaxnoza Buriyeva**

Termiz davlat universiteti 1-kurs

Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) yo'nalishi magistranti.

Termiz, O'zbekiston.

+998948940119 [sh.b.alisherovna@gmail.com](mailto:sh.b.alisherovna@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11128099>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasavvuf tushunchasining mohiyati, uning islom olamida paydo bo'lishi va taraqqiy etishi, shuningdek, tasavvuf allomalari bilan bog'liq ilk ilmiy-nazariy qarashlar, tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning obraz sifatidagi taraqqiyot jarayoni tavsiflanadi.

**Tayanch so'zlar:** shayx, manoqib, tabaqoti so'fiya, diniy-ma'rifiy qissa.

### HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE IMAGE OF MYSTICAL LOGISTICS

**Abstract.** This article analyzes the essence of the concept of Sufism, its emergence and development in the Islamic world, as well as the first scientific-theoretical views and studies related to Sufism scholars, and describes the process of their development as an image.

**Key words:** shaykh, manoqib, Tabaqati Sufi, religious-educational story.

### ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ОБРАЗА МИСТИЧЕСКОЙ ЛОГИСТИКИ

**Аннотация.** В данной статье анализируется сущность понятия суфизм, его возникновение и развитие в исламском мире, а также первые научно-теоретические взгляды и исследования, относящиеся к ученым-суфизму, и описывается процесс их развития как образа.

**Ключевые слова:** шейх, манкиб, суфий Табақати, религиозно-просветительский рассказ.

Yurtimizda istiqlolning dastlabki yillaridayoq tasavvuf va unga aloqador mavzularda bir qator yangiliklar, ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, mustaqillikdan so'ng tasavvuf allomalari va ularning ilmiy merosiga yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatildi. Xususan, 1993-yilda Xoja Bahouddin Naqshbandning 675 yillik yubileyi, 2003- yilda Xoja Abdulholiq G'jduvoniyning 910 yilligi, 2004-yilda Xoja Ahror Valiyning 600 yillik yubileyi keng nishonlandi. Bundan tashqari, 2008- yildan e'tiboran "Naqshbandiya" ilmiy-irfoniy jurnal nashr etilib kelinmoqda. Shuningdek, tasavvuf allomalarining hayoti va faoliyatiga doir asarlar tarjima qilinmoqda. Jumladan, 1991- yil Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" to'plami, 1993-yilda Xoja Bahouddin Naqshband hayot yo'li va ma'rifiy merosini yoritishga bag'ishlangan Muhammad Boqir ibn Muhammad Alining "Maqomati Xoja Bahouddin Naqshband" asari, 2003-yilda Hakim Termiziyning "Manozil ul-ibod min al-iboda" asari, 2004-yilda Xoja Ahror Valiyning to'rt asari jamlanib, "Tabarruk risolalar" to'plami ostida nashr etildi.

Shuningdek, I.Haqqulovning "O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti (g'oyaviylik, izdoshlik, obrazlar olami)" (1995), A.Abduqodirovning "Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti (Vahdat ul-vujud problemi bo'yicha)", K.Mullaxo'jayevning "Alisher Navoiy g'azaliyotida tasavvufiy timsol va badiiy san'atlar uyg'unligi ("Badoye ul-bidoya" asosida)" doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarida tasavvuf ta'limotidagi badiiy nafosat, she'riy san'at, ramz va ishoralar xalqimiz uchun ilmiy asosda sharhlanib soddalashtirilgan holda taqdim etilgan.

Tasavvuf allomalari haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo, uning mohiyati, yaratilishi bilan bog'liq ilmiy-nazariy fikrlarni tadqiq etish lozim. Ma'lumki, islom dinining shakllanishi, uning butun sharqqa yoyilishi bir qancha jarayonlarni qamrab olgan. Turk adabiyotshunos olimi Fuad Koprulu o'zining " Turk adabiyotida ilk mutasavvuf" nomli kitobida Carra de vauxning ushbu fikrini keltiradi: "Islom dinining yoyilishi jarayonida Eron dan boshqa mamlakatlarda ham turli urf-odatlar, e'tiqodiy qarashlar, hind madaniyati, qadimgi yunon faylasuflarining tarjima asarlari asnosida paydo bo'lgan umumiy nazariyalar muhim ahamiyatga ega edi va bularning bari Islom mamlakatlarining har tarafida farqli mazhab va tariqatlar vujudga kelishiga sabab bo'ldi"(1,7-8).

Asrlar o'tishi bilan islom dinini qabul qilgan turli madaniyatli xalqlar orasida o'ziga xos e'tiqodiy qarashlar paydo bo'la boshladi Ularning ichida eng ko'p shuhrat qozongani tasavvuf edi.

Tasavvuf insonni ruhiy va axloqiy komillikka yo'naltiruvchi ta'limot hisoblanib, islom dini ahkomlari asosida insonning botiniy va zohiriy olamini yuksaltirgan. Ushbu tushuncha dastlab Eron da paydo bo'lib, mashhur tarixchi ibn Xaldu nning ta'kidlashicha, tasavvuf "suvf" ya'ni "po'stin", "jun" so'zidan kelib chiqqan. Qadimdan tarki dunyo qilib, dunyo ne'matlaridan voz kechgan insonlar ustilariga jundan qilingan xirqa kiyishgan. Ya'ni kiyimlarining oddiy odamlarnikidan ajralib turishi tariqatga kirganliklarining belgisi hisoblangan. Ushbu tushunchaning aynan qachon kelib chiqqani haqida aniq ma'lumot yo'q, ammo shunisi aniqki, tasavvuf vakillarining aksariyati sunniy mazhabiga mansub bo'lgan. Xususan, fors shoiri, mutasavvuf olim Abdurahmon Jomiyning ta'kidlashicha, ilk bor Abdulloh ibn Muhammad ibn al Hanafiya "So'fiy" nomi bilan atalgan.

Movarounnahrda islom dini yoyilgandan so'ng Eron va Xuroson orqali tasavvuf ham kirib keldi. Hirot, Nishopur, Marvda hijriy III asrda mutasavvuf ko'paya boshlagan bo'lsa, hijriy IV asrda Buxoro, Farg'onada ham paydo bo'la boshladi (2,18). Hattoki, Farg'onada turklar o'z shayxlarini **bob**, ya'ni **bobo** nomi bilan atashdilar.

Xurosonda paydo bo'lgan tasavvuf vakillari ta'sirida turklar orasida ham bu ta'limot yoyila boshladi. Mashhur so'fiy Abu Said Abul Hayrining ziyoda hurmat qilgan insonlaridan bo'lgan Muhammad Mashuq Tusiy va Amir Abu Holislar turk edilar (3,275). Ayni shu kabi omillar asnosida turklar orasida ham tasavvuf ta'limoti asta-sekin kengayib bordi va Buxoro, Samarqand kabi buyuk islom markazlaridan butun O'rta Osiyoga yoyilib, taraqqiy etdi. Darhaqiqat, tasavvuf turkiy olamda ravnaq topdi, dastlab faqat diniy e'tiqodni kuchaytirishga qaratilgan ushbu ta'limot Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Ahmad Yassaviy, Farididdin Attor, Bahovuddin Naqshbandiy, Xo'ja Ahror Valiy kabi buyuk insonlar soyasida takomillashdi.

Tasavvuf allomlarining obraz sifatida shakllanishi uzoq tarix, tasavvuf shayxlari, avliyolar hayoti, faoliyati, karomatlari haqida yozilgan dastlabki asarlar bilan bog'liqdir. O'z davrida avliyolar haqida tazkira bitish, ular haqidagi maqomat va manoqiblarini yozish ham bizda bir an'anaga aylanib qolgan edi. Ulug' shoir va mutasavvuf Farididdin Attor o'zining "Tazkirat ul-avliyo" asarida "Avliyolarning so'zi kishi qalbining malhami va ruhining quvvatidir", - deya ta'kidlaydi. Tasavvuf shayxlari xalqning ma'naviy yetakehisi, rahbari sifatida maydonga chiqib, islom dini arkonlari, Qur'on va hadislariga tayangan holda insonlarga hayot, oxirat, odamiylik, komillik xususida fikr yuritib, ichki olamini tartibga solishda ko'mak berdi.

Tasavvuf allomalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar tabaqoti so'fiya kitoblari, manoqib kitoblari va tazkiralarda keltirilgan. Usmon Turarning fikriga ko'ra, tabaqoti so'fiya asarlari

mashhur mutasavvufning hayoti haqidagi hikoyatlardan, turli fikrlardan, ularning hikmatlari, tasavvufiy martabalaridan, karomatlaridan soʻz yuritadi. Bu kabi asarlarda roviylarga oid maʼlumotlar berilganligi uslubiy jihatdan hadis ilmiga oʻxshaydi. Manoqib asarlarda esa shayxlarning faoliyatidan, xalifalaridan, tariqatlaridan hikoya qilish barobarida asli yoʻq mubolagʻalar ham uchraydi. (5,14) Ushbu asarlar orqali tasavvuf allomalarining obraz sifatida shakllanishi ular haqidagi hayotiy voqealar, rivoyatlar, ilmiy- nazariy qarashlar bilan bogʻliqligi anglashiladi. Jumladan, Abdurahmon Sullamiyning “Tabaqatus soʻfiya”, Abdulloh Ansoriyning “Manozilus soirin”, Faxriddin Ali Safiyning “Rashahotul aynil hayot”(nashbandiya mashoyixi haqida), Ahmadi Afloqiyning “Manoqibul orifin” (mavlaviya tariqati ahllari haqidagi risola) Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahatul uns min hazarotil quds”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Muhammad Siddiq Rushdiyning “Tazkirat ul-avliyoyi turkiy” kabi kitoblari tasavvuf vakillari haqida maʼlumot beruvchi ilk ilmiy asarlardir.

Bundan tashqari, tasavvuf tarixiga bogʻliq taʼrix, shohrangiz, qomus va sayohatnomalar ham ushbu mavzuga oid tushunchalarni tavsiflashda yordam beradi.

Oʻzbek nasrida shayxlar, soʻfiylar va tariqat egalari obrazi bir qancha badiiy asarlarda ham uchraydi. Bu jarayon, ayniqsa, istiqlol davri adabiyotida yozilgan diniy mavzudagi asarlarda koʻzga tashlanadi. Jumladan, Saʼdulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romani, Abdumutal Abdullayevning “Hazrati Attor” maʼrifiy qissasi, Xurshid Davronning “Shahidlar shohi” diniy-maʼrifiy qissasi, E.Samandarning “Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy”, K.Ikromovning “Mahmud dorboz“ qissalarida qahramonlar tasavvuf kishisi, oʻziga xos gʻayb ilmi sohibi sifatida tasvirlangan.

Umuman olganda, tasavvufning tarixiy taraqqiyoti sharqda islom dini kirib kelishidan oldin mavjud boʻlgan diniy qarashlar bilan bogʻliqdir. Shu bilan birga, ularning obraz sifatida shakllanishi va bugungi oʻzbek nasrida ham badiiy ahamiyat kasb etishi tasavvufning inson ongi va ruhiyatini tarbiyalovchi kuchga ega ekanligidan dalolat beradi.

## REFERENCES

1. Carra de Vaux, Gazali, F. Alcan, Paris, 1902, ch. 7-8
2. Fuat Koʻprulu. Turk edebiyatinda ilk mutasavviflar. Turk tarih kurumu basimevi-Ankara 1976
3. Abdurahmon Jomiy. Nafohot ul-uns tarjimasini .275-bet
4. Farididdin Attor. “Tazkirat ul-avliyo” asari muqaddimasidan.7-bet
5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi.-T.: “Istiqlol”1999 14
6. <https://buxhari.uz>
7. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf saboqdari. Buxoro, 2000. 78 bet.
8. Omanova M. Istiqlol davri o'zbek romanlarida shayx valiyalar obrazining badiiy talqinlari. Филол. фан. б. фалс. док. дисс... автореф. – Jizzax, 2022.